

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDAGI TALABALARNI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURI YORDAMIDA NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH MOHIYATI

Ilmiy tadqiqotchi: Usmonova Nafisa A'zam qizi
O'zbekiston jurnalistikasi va ommaviy ahborotlar universiteti


Kalit so'zlar: AutoCAD dasturi, naqsh, amaliy san'at, ta'lim, talaba, simmetriya, ta'lim, uskunalar paneli, grafika, rang

Annotatsiya: Ushbu tezisda Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarni o'qitishda AutoCAD dasturi yordamida naqsh namunalarini chizish haqida ma'lumot berilgan. Talabalar amaliy san'at haqida ma'lumotga ega bo'lishi bilan simmetrik va asimmetrik naqshlarni chizishi va unga mos rang tanlay olishi haqida ma'lumot berilgan.

Mustaqil shaxsni shakillantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlarini yo'lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqli kadr darajasigacha tarbiyalash ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Darhaqiqat, bir tomondan, barcha davlat tizimlari hamda ijtimoiy tashkilotlar, va ayniqsa, ta'lim tizimi mutassidlarning zimmasiga bu masala ko'pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi. Respublikamizda yuqori texnologik jarayonlarni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida rangshunoslikni o'qitishning ham o'ziga xos o'rnini bor. Bu jarayonda ta'limning tarixiy-milliy merosi, xususan, rangshunoslik texnologiyalaridan zamonaviy dasturlaridan ta'limiy jarajonlarida foydalanish muhim ahamiyatga ega. [1.138] Kompyuter grafik dasturlaridan foydalanib, naqqoshlik badiiy bezak fanlari, interyerlarni bezash kabi amaliy ishlarni talabalarni fanni yaxshi o'zlashtirishga samarali yordam beradi. Grafik dasturlardan foydalanib talabalarga dars o'tish fanni yanada qiziqarli bo'lishiga, masalalar ko'rimli, tushunarli bo'lishiga, talabalar xotirasida saqlashni ta'minlaydi va o'zlashtirishni hamda ta'lim sifatini yuqori darajada oshirishga yordam beradi.


Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda bir necha grafik dasturlar mavjud va ulardan chizma geometriya, muhandislik va amaliy grafika fanlariga mos keladigan AutoCAD daturidir. Ushbu dastur 2D va 3D chizma o'lchamli formatda chizishimiz mumkin.

AutoCAD dasturini yuklab yangi ishchi oyna ochiladi. Uskunalar panelidan Restangle tugmasini bosib bizga kerakli gorizontal o'lchamini yozamiz vergul bilan uzunlikni yozib Enter bilan tasdiqlanadi. (1-rasm)



(1-rasm)


Naqshning aynalarini chizish uchun Uskunalar panelida joylashgan tugmalari yordamida naqshlarning barcha gullarini chizib olamiz. (2-rasm)




(2-rasm)

Asosini chizib bo'lgach bezak chiziqlarini chizib olamiz.

Chiziqlarni umumiy belgilab uskunalar panelidan mirror tugmasini bosib ko'paytirib joylab olinadi. Naqshning chizish jarayonini, bo'yash qismiga o'tiladi. Uskunalar panelidan Gradient tugmasini bosib bo'yab bezatamiz. (3,4-rasm)



(3-rasm)



(4-rasm)

AutoCAD daturi amaliy bezak fanida foydalanish qulay va oson hisoblanadi. Aynan shu dastur orqali talabalar quyidalarni amalga oshira oladilar:

- yangi dasturni o'rganish
- amaliy san'at haqida ma'lumotga ega bo'lish
- milliy naqsh haqida ma'lumotga ega bo'lish
- naqshga mos rang tanlash
- simmetrik va asimmetrik naqshlarni chizish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzluksiz ta'lim tiziminining chizma geometriya va muhandislik grafikasi yo'nalishida pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari Respublika imiy-amaliy anjumani materiallari to'plam №3 Toshkent 15-aprel 2015-yil.138-bet.